



SO'Z VA MAS'ULIYAT: ALEKSANDR FAYNBERGNING

“ADABIYOTCHIGA” SHE’RI TAHLILI

*Esonaliyeva Husnida Shavkatjon qizi O`zbekiston Davlat jahon
tillari universiteti 2-bosqich talabasi husnidaesonaliyeva@gamil.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Aleksandr Faynbergning ijodi, adabiy merosi, uning "Adabiyotchiga" she'rining asosiy g'oyasi tahlil qilinadi, she'rning maqsadi yanada aniqroq tushuntiriladi, har bir misrada qo'llangan ramziy obrazlar va tarixiy shaxslar haqida ma'lumot beriladi.

Annotation: This article analyzes the literary heritage and creative work of Alexander Faynberg, with a particular focus on the main idea of his poem “To the Literati”. The purpose and ideological content of the poem are explained in greater detail. Special attention is given to the symbolic images used in each line, as well as to the historical and literary figures reflected in the poem.

Аннотация: В данной статье рассматриваются творчество и литературное наследие Александра Файнберга, а также анализируется основная идея его стихотворения «Литератору». Более подробно раскрывается идейное содержание и цель произведения. Особое внимание уделяется символическим образам, использованным в каждой строке, а также историческим и литературным личностям, представленным в стихотворении

Kalit so‘zlar: Aleksandr Faynberg, Jukovski, "Oq qushlar galasi", metafora, Don Kixot, Migel de Servantes, Iskandar, Rosinant va Bitsefal.

Keywords: Alexander Faynberg, Zhukovsky, “A Flock of White Birds”, metaphor, Don Quixote, Miguel de Cervantes, Alexander the Great, Rocinante, Bucephalus.



Ключевые слова: Александр Файнберг, Жуковский, «Стая белых птиц», метафора, Дон Кихот, Мигель де Сервантес, Искандар (Александр Македонский), Росинант, Буцефал.

Aleksandr faynbergni har eslaganda uning tabiat, vatan tuyg'usi singdirilgan she'rlarini, hayot haqiqati, taqdir timsoli orqali ifodalangan she'rlarini eslamaslikning hech ilojisi yo'q. Shoir 1939-yil 2-noyabrda Toshkent shahrida tavallud topgan. Uning bolaligi sobiq Jukovski ko'chalarida o'tgan. Shoir beg'ubor bolalik chog'laridan boshlab, tabiatga, atrofida bo'layotgan voqealarga, inson qalbidagi har bir tuyg'uga bee'tibor bo'lmagan. Bunga keyinchalik uning ijodidagi she'rlari orqali guvoh bo'lishimiz mumkin. Uning har bir she'rida qalbining tub-tubidan chiqayotgan muhabbat, insoniylik va musaffo qalb nishonasi ma'lim bo'lib turadi. Shoir ijodiy merosi jami 15ta she'riy to'plam, ko'plab ssenariylar va pyesalarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari adib tarjimonlik sohasida ham salmoqli qalam tebratgani ma'lum. Misol uchun, u ruszabon o'quvchilarga shoirlarning asarlarini ochib bergan. Jumlada, Moskvada Erkin Vohidovning "Ruhlar isyoni" dostoni chop etilgan, Toshkentda esa Abdulla Oripov va Xosiyat Rustamova, Sirojiddin Sayyid va Omon Matchonlarning she'rlari jamlangan "Oq qushlar galasi" to'plami nashrdan chiqqan. Aleksandr Faynberg 2009-yil 14-oktabr kuni Toshkentda vafot etdi.

Uning she'rlari bugungi kungacha sevib o'qilmoqda, ayniqsa, uning she'rlarida qo'llagan yashirin ramziy obrazlar, chuqur ma'no o'quvchilarni nafaqat o'qib rohatlanishga, balki o'yga toldirishga ham sabab bo'lmoqda desak mubolag'a bo'lmoqda.

Uning "Adabiyotchiga" nomli she'ri ham shundaylardan biri bo'lib, o'zbek tiliga taniqli va mahoratli shoir, tarjimon Rustam Musurmon tomonidan tarjima qilingan. Aleksandr Faynbergning "Adabiyotchiga" she'ri adabiyot va adabiyot ahliga nisbatan talabchan, keskin va vijdoniy munosabat asosida yaratilgan asardir.



She'ning asosiy g'oyasi — so'z mas'uliyati, adabiyotning haqiqiy vazifasi va adabiyotchining jamiyat oldidagi javobgarligi masalasini ochib berishdan iborat. Shoir bu asarda adabiyotchini shunchaki ijodkor sifatida emas, balki ijtimoiy ongning shakllantiruvchi kuch sifatida talqin qiladi. Faynberg nazarida adabiyot — shaxsiy adovatni, g'azabni yoki kimnidir urishtirishni emas, balki haqiqatni aytishni, xalqni uyg'otishni ko'zlashi lozim. She'rda tanqid qilinayotgan adabiyotchi obrazi esa so'zni o'z manfaatiga bo'ysundirgan, omma nomidan gapirib, aslida esa xalqni chuqur anglamaydigan shaxsdir. “Qalamni qilichga tenglashtirish” orqali shoir so'zning kuchini tan oladi, biroq bu kuch noto'g'ri qo'llansa, xavfli qurolga aylanishi mumkinligini uqtiradi. Asar mazmunan ogohlantiruvchi xarakterga ega: agar adabiyotchi o'zining kimligi, nima uchun yozayotgani va kim uchun yozayotganini anglamasa, uning so'zi jamiyat uchun foydadan ko'ra zarar keltiradi. Shunday qilib, ushbu she'ning asosiy g'oyasi – adabiyot o'yin emas, adabiyot vijdon, mas'uliyat va haqqoniylik yo'lidir va bu yo'lda adabiyotchi o'zining kimligini, asosiy maqsadini yaxshi anglab olishi juda muhimdir. She'ning har bir misrasini o'qir ekanmiz, undagi o'zgacha ma'noni ko'rib Aleksandr Faynbergning mahoratiga yana bir bor guvoh bo'lamiz.

Raqibdan o'ch olishni istab,

Gijgijlaysan sen meni unga.

Bu misralarda adabiyotchining shaxsiy adovati fosh etiladi. “Gijgishlash” fe'li orqali shoir fitna, ig'vo, atayin qo'zg'atish ma'nosini beradi. Bu yerda adabiyotchi so'zdan yarashtirish uchun emas, urishtirish uchun foydalanmoqda. Bu yerda kinoya va salbiy bo'yoqli leksikadan mohirona foydalanilganini ko'rishimiz mumkin.

Urishtirmoq chorasini izlab,

Ozib ketding sen kundan-kunga.



Adabiyotchining asl maqsadi shu mirsada ochiladi. U haqiqatni izlamaydi, murosaga chaqirmaydi, balki odamlarni bir-biriga qarshi qo'yish yo'lini qidiradi. "Chora izlash" iborasi odatda ijobiy ma'noda qo'llanadi, lekin bu yerda u salbiy ma'noga burilgan – urishtirishni ongli ravishda rejalashni anglatadi. "Ozib ketish" iborasi esa faqat tashqi holat emas, balki ruhiy va ma'naviy yemirilishni ifodalaydi. Shoir adabiyotchining bunday yo'ldan yurishi uni kuchaytirmasligini, balki ichdan yemirib, qadsizlantirishini bildirado. "Kundan-kunga" birikmasi esa bu jarayonning uzluksiz va davomiy kuzatilishini ifodalaydi.

Omma uchun sen so'z o'ynaysan,

Qilich deysan qalamning kuchin.

Bu misralarda "so'z bilan o'ynash" tushunchasi markazga chiqadi. Shoir adabiyotchining balandparvoz gaplarini fosh etadi. Qalamni qilichga qiyoslash – metafora, biroq shoir bu metaforani jiddiy emas, iztehzoli ruhda beradi.

Xalqni bilmaydi deb o'ylaysan:

Bu nimaga, bu nima uchun?

Bu savollar ritorik savollar bo'lib, adabiyotchining o'zini xalqdan ustun qo'yishini tanqid qiladi. Shoir bu orqali adabiyotchi xalqni tushunmasdan turib, uning nomidan gapirayotganini ko'rsatadi.

Sanab qo'ygin to yuzga qadar,

So'ng hushingni yig'ib ol, nodon –

Bu yerda shoir ogohlantiruvchi ohangda murojaat qiladi. "Sanab qo'yish" — tinchlanish, o'zini qo'lga olish ma'nosini anglatmoqda. "Nodon" so'zi haqorat emas, balki o'zini anglamagan odam holatini bildiradi. Shoir bu orqali bunday maqsadli adabiyotchini hali o'zini anglab ulgurmagan odamga qiyoslaydi.



Hayotda Don Kixot, Iskandar

Ko 'rilmagan aslo, hech qachon.

Don Kixot – Migel de Servantes asaridagi xayolparast qahramon. U o'zini ritsar deb biladi, ammo real hayotni noto'g'ri qabul qiladi. Faynberg bu obraz orqali o'zini qahramon sanagan, lekin voqelikdan uzilgan, so'z bilan kurashaman deb, haqiqatni ko'rmayotgan adabiyotchini nazarda tutadi. Iskandar esa tarixda qudrat, zabt etish, kuch timsoli. She'rda bu obraz o'zini buyuk shaxs deb bilish, haddan oshirish ramzi sifatida keladi. She'rda aytmoqchiki, adabiyotchi o'zini Iskandar darajasida ko'rsa ham, u real hayotda oddiy inson, mas'uliyatli bo'lishi kerak.

U g'am chekkan, ruhan qiynalgan,

Bu o't qo'ygan, o'ldirgan qattol.

Biroq bir xil pichan chaynagan

Doim Rosinant va Bitsefal.

Rosinant va Bitsefal – qahramonlarning otlari. Bu yerda ular takrorlanayotgan, eskirgan fikrlar, bir xil yo'l ramzidir. Adabiyotchi ham yangilik yaratmay, doimo bir xil yo'ldan yuribdi.

Xulosa qilib aytganda, Aleksandr Faynbergning “Adabiyotchiga” she'ri shoirning eng mashhur she'rlaridan biri bo'lib, o'zining chuqur ma'noga ega ekanligi bilan ajralib turadi. She'rda shoir ba'zi bir adabiyotchilarni tanqid qiladi, ularning asosiy maqsadi so'z orqali go'zal asarlar yaratish emas, balki undan notog'ri foydalanish, odamlarni bir-biriga qarshi qo'yish, urishtirish ekanini qoralaydi. Bundaylarni ogohlantirib, bu yo'l noto'g'ri ekanini tushuntirmoqchi bo'ladi. Hatto ularni o'zini Don Kixot yoki Iskandar deb o'ylashsa ham, bular xomxayol ekanini ta'kidlaydi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://ilmlar.uz/faynberg-aleksandr-arkadevich-hayoti-va-ijodi/>
2. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-she-riyati/rus-she-riyati/aleksandr-faynberg-1939-2009>
3. <https://ziyouz.uz/ozbek-sheriyati/ozbek-zamonaviy-sheriyati/rustam-musurmon/>
4. <https://arboblar.uz/ru/people/fajnberg-aleksandr-arkadevich>
5. View of XX ASR OXIRI XXI ASR BOSHIDAGI O'ZBEK SHE'RIYATIGA
FAYNBERGNING TA'SIRI.
<https://spaceknowladge.com/index.php/JOISR/article/view/3464/3689>